

BOLALAR ADABIYOTINING ZUKKO BILIMDONI

Jabbor Eshonqulov

filologiya fanlari doktori, professor

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ko‘plab olimlarga ham ilm, ham katta hayot maktabi vazifasini o‘tagan. Aynan shu dargohda ilmga umrini bag‘ishlagan, har jihatdan boshqalarga chinakam o‘rnak bo‘lgan ustoz olimlarni uchratdik. Katta hayot tajribasiga ega ustozlardan, hamkasblardan ilmga oshnolikni, odamiylik sabog‘ini o‘rgandik. Menga o‘xshagan ko‘plarni aynan shu dargoh ilmga, hayotga tayyorlagan, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Ana shunday olimlar orasida uzoq yillar shu institutda ilmiy kotib vazifasida ishlagan Rahmatulla Barakayev ham bor.

Rahmatulla Barakayev nomini oldin ko‘p bora eshitgan bo‘lsam-da, rasman tanishuvimiz aspiranturaning uchinchi bosqichi tugashi arafasida bo‘lgan. Ustoz To‘ra Mirzayev aspirantura bilan bog‘liq hujjatlar masalasida ilmiy kotib, Rahmatulla Barakayev oldiga jo‘natgan.

Tabiatan tortinchoq bo‘lganim uchun o‘sha kuni borib uchrashsammi, yo‘qmi, degan xayolda edim. Har holda, bugun oldiga kirmayman, degan qarorga ham kelgandim. Biroq, aksiga olib, Rahmatulla aka meni yo‘lakda meni qo‘rib qolib, xonasiga boshlab kirgan. Dastavval, oilaviy ahvolimni, keyin esa dissertatsiyaning qay ahvoldaligini surishtirgan. Shu kuni suhbatimiz kutganimdan uzoq cho‘zilgan. Sirtidan ko‘zimga rasmiy va sovuq odam bo‘lib ko‘ringan “ilmiy kotib” birdan boshqa qiyofada namoyon bo‘lgan.

Shu bo‘ldi, oldin nomzodlik ishini himoya qilgungacha, undan keyin ham ko‘proq Rahmatulla akadan maslahat oladigan bo‘ldik. Ilmiy ishga taalluqli biror muammo tug‘iladigan bo‘lsa, borar joyimiz aniq edi. Har gal uchrashganimizda ilk suhbatdayoq bizga qadrdon bo‘lib qolgan “o‘z akamiz”ning yangidan-yangi qirralarini kashf etishdan charchamadik.

Rahmatulla akada buxorocha jaydarilik, soddalik bilan bilan birga samimiyat, katta bir hayotiy tajribaga ega donishmandlik ham bor. Hech qachon qizishmaydi, jahl bilan gapirmaydi. Har bir hodisani bir oz sovuqqonlik, bosiqlik bilan mulohaza qilishga harakat qiladi. Har bir yig‘inda, ilmiy munozaralarda, turli mavzulardagi suhbatlarda nafaqat olim, balki, mohir pedagog, psixolog ekanligi ham sezilib turadi.

Mening nazarimda, bu tabiiydek. Chunki, ilmu ma‘rifat maskani Buxoroda tug‘ilib, Matyoqub Qo‘shjonov, Izzat Sulton, Abduqodir Hayitmetov, To‘ra Mirzayev, Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov kabi ustozlar sabog‘ini olgan, bir umr bolalar adabiyoti bilan shug‘ullangan olim boshqacha bo‘lishi mumkin emas. Bir insonning kamol topishida ulg‘aygan muhiti bilan birga, u tanlagan kasb ham

muhim ahamiyatga ega. Ba’zan menga odam kasbni emas, aksincha, kasb odamni tanlaydigandek tuyularveradi.

Rahmatulla Barakayev 1954-yilda Buxoro viloyatining Vobkent tumanida tug‘ilgan. Bu Stalinning qatag‘on va qo‘rquv siyosatidan keyin iliqliq, bir muncha erkinlikning boshlanish davri bo‘lgan. E’tibor qilsak, aynan shu davrdan to sho‘ro tuzimi yana jilovni mahkam qo‘liga olguncha adabiyoting eng sara namunalari chop etilgan.

Bolalar adabiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bolalar adabiyotining ham eng sara namunalari aynan ham shu davrdan keyin yaratila boshlagan. Mening nazarimda, adabiy jarayondagi ana shu o‘zgarishlar Rahmatulla akaga o‘xshagan ko‘plarning kasb tanlashida ham rol o‘ynagan. Maktabdan so‘ng Toshkent davlat pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olgan. 1975-yilda mazkur dargohni tugatib, yana o‘zining tug‘ilgan qishlog‘iga qaytadi. Bir muddat Vobkent tumanida maktab o‘qituvchisi, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, tuman xalq ta’limi bo‘limi metodisti vazifalarida ishlaydi. Chinakam ilmga kirib kelishiga ustoz To‘ra Mirzayev sabab bo‘lgan.

Rahmatulla Barakayev 1980-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutiga ishga kelib, laborant, katta laborant, stajyor-tadqiqotchi, kichik ilmiy xodim, ilmiy xodim lavozimlarida faoliyat yuritgan. 1994-yildan to 2018-yilgacha shu institutning ilmiy kotibi vazifasida ishladi. 1994-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan bo‘lsa, 2009-yilda katta ilmiy xodim, 2022-yilda professor ilmiy unvoniga ega bo‘ldi.

Institut va unda ishlaydigan odamlarning eng kichik muammosigacha Rahmatulla akachalik yaxshi biladigan odam bo‘lmasa kerak. Umrining qirq to‘rt yilini shu dargohda o‘tkazgan, ayrim ustozlarning iborasi bilan aytganda, shu institutning allaqachon “jonli inventari” aylanib ulgurgan.

O‘tgan asrning saksoninchi yillari o‘zbek adabiyoti uchun katta o‘zgarishlar, yangilanishlar yillari bo‘lgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu o‘zgarishlar, birinchi navbatda, bolalar adabiyotida o‘z aksini topdi. Bolalar adabiyotidagi ana shu o‘zgarishlar jarayonini Rahmatulla aka o‘zining maqolalari, ilmiy tadqiqotlarida asoslab berishga harakat qildi. Shu davrdan boshlab o‘zining maqolalari, televideniye va radiodagi chiqishlari, anjumanlardagi ma’ruzalari bilan bolalar adabiyoti tadqiqotchisi sifatida tanila boshladi.

Rahmatulla Barakayevnin ilk kitobi “Jonajonim, she’riyat” o‘zbek bolalar adabiyoti, xususan, 80-yillar bolalar she’riyati tadqiqiga bag‘ishlangan. Murakkab va turli eksperimentlarga boy bir davr adabiy tafakkuridagi evrilish jarayonlarini Rahmatulla Barakayev bolalar adabiyoti misolida tahlil etadi. Shu davrda faol ijod

qilgan ko‘plab bolalar ijodkorlari, ayniqsa, yosh ijodkorlarning elga tanilishida “Jonajonim she’riyat”ga o‘xshash izlanishlarning o‘rni katta bo‘lgan.

Rahmatulla Barakayevning bolalar adabiyotiga bag‘ishangan tadqiqotlari, darsliklarida beshta jihat alohida ko‘zga tashlanib turadi:

1. Bolalar adabiyoti ibtidosining folklor san’ati bilan bog‘liqligi;
2. bolalar adabiyoti taraqqiyotida mumtoz adabiyotning o‘rni;
3. milliy uyg‘onish davrida bolalar adabiyotining takomili;
4. bolalar adabiyoti taraqqiyoti tarjima san’ati bilan chambarchas bog‘liqligi;
5. o‘zbek bolalar adabiyoti rivojida jahon adabiyotining ta’siri masalalari.

Rahmatulla Barakayev o‘z tadqiqotlarida Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Saidrasul Aziziy va boshqa ma’rifatparvar ijodkorlar merosida bolalarga mo‘ljallab yaratgan asarlarning asosiy qismi bevosita yoxud bilvosita xalq og‘zaki ijodiga taalluqli ekanligini, ularning ko‘plab asarlariga xalq ertak, qo‘shiq va masallari asos bo‘lib xizmat qilganligini tahlilga tortgan.

“Navoiyni anglash mashaqqatlari”, “Alisher Navoiy ijodida ma’rifiylik ta’limiylik”, “Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik g‘oyalari”, “Alisher Navoiy ijodida mehr muruvvat va saxovat g‘oyalari” kabi turkum maqolalarida Alisher Navoiy merosi misolida mumtoz adabiyotning bolalar adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyati masalalariga e’tibor qaratadi.

Rahmatulla Barakayev nashrga tayyorlagan Abdulla Avloniyning “**Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom**” kitobi milliy uyg‘onish davri adabiyot namunalari bilangina tanishtirib qolmaydi, balki, xalq pedagogikasi tarixi, o‘tgan asr boshidagi adabiy jarayonni o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Rahmatulla aka tomonidan tayyorlangan bu asar takror va takror nashr etib kelinmoqda.

O‘tgan asr boshida ko‘plab jahon adabiyoti namunalari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Bu asarlar orasida bolalar adabiyoti alohida ajralib turadi. Rahmatulla Barakayev bolalar adabiyoti namunalari tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini Sayfi Saroyi va Ogahiy, mulla Murodxo‘ja tarjimalari misolida asoslab berishga harakat qilgan.

Sharq adabiyotning nodir namunalari bo‘lgan “Kalila va Dimna”, “Bo‘ston” va “Guliston”, “Mushuk va sichqon” hamda A.S.Pushkin, K.D.Ushinskiy, L.Tolstoy kabi rus adiblari asarlarining tarjimalari misolida bolalar adabiyoti tarjimashunosligi bilan birga jahon adabiyotining o‘zbek bolalar adabiyotiga ta’siri masalalariga atroflicha to‘xtalgan.

Rahmatulla Barakayev o‘z tadqiqotlarida Hamza, Abdulla Avloniy, G‘afur G‘ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, Po‘lat Mo‘min,

Xudoyberdi To‘xtaboyev, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab kabi ijodkorlarning merosi misolida o‘zbek bolalar adabiyotining yuzaga kelishi, tarixiy taraqqiyoti jarayonlarini tadqiq etib, muhim nazariy xulosalarga kelgan.

Aslida, Rahmatulla Barakayev ijodi mohiyatini belgilab bergan mavzular katta-katta ilmiy tadqiqotlarning yo‘nalishlari. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Rahmatulla akaning ko‘plab shogirdlari ustozining tadqiqotlariga o‘rtaga tashlangan mavzularni kengroq miqyosda o‘rganishga harakat qilishmoqda.

Bugun Rahmatulla Barakayevni ilmiy jamoatchilik o‘zbek bolalar adabiyoti, adabiy aloqalar va tarjimashunoslik sohasining yetuk bilimdonlardan biri sifatida yaxshi bilishadi, qadrlashadi.

“Jonajonim she‘riyat”, “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi”, “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar”, “Badiiy tasvir mahorati” kabi 10 dan ortiq monografiya va risolalar, oliy o‘quv yurtlari uchun darslik kitoblar, 270 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar olimning ilmiy pedagogik faoliyati haqida to‘la tasavvur bera oladi.

Rahmatulla Barakayev bugun o‘zining yetmish yoshini qarshilab turibdi. Hali Rahmatulla aka kuch-g‘ayratga to‘la. Rahmatulla akani ana shunday qutlug‘ shodiyona bilan chin dildan tabriklab, yana uzoq yillar o‘zining ilmiy izlanishlari, jamoat ishlarida tashabbuskorligi va faolligi bilan barchamizni xursand qilib yurishini tilab qolamiz.